

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O‘ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
---	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
---	-------

<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
---	-------

<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105
---	--------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
---	---------

<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
--	---------

<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
--	---------

<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
---	---------

<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
--	---------

<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
--	---------

<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137
--	---------

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA TAHLIL QILISH

Isomuxamedov Akbarjon Boxodir o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti,
o'qituvchi (mustaqil tadqiqotchi),
Tel: +998 97 626 92 32

Annotatsiya. Mazkur ishda kichik biznes subyektlarida xarajatlar va daromadlar hisobi, ularni to'g'ri tashkil etish va tahlil qilishning ahamiyati yoritilgan. Xalqaro standartlar asosida hisob yuritishning o'rni ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: hisob, xarajat, daromad, tannarx, buxgalteriya, tahlil, MHXS, moliyaviy natija, rejalashtirish, soliq, auditorlik, avtomatlashtirish.

ORGANIZATION AND ANALYSIS OF EXPENSES AND INCOME ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS ENTITIES

Isomukhammadov Akbarjon Bakhodir ogli

Namangan State Technical University,
Lecturer (Independent Researcher)

Abstract. This paper analyzes cost and revenue accounting in small businesses, highlighting the role of proper record-keeping and IFRS standards in financial sustainability and planning.

Key words: accounting, cost, revenue, cost price, bookkeeping, analysis, IFRS, financial result, planning, tax, audit, automation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-11>

Bugungi iqtisodiy islohotlar sharoitida kichik biznes subyektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining eng faol va jadal rivojlanayotgan segmenti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular nafaqat bandlikni ta'minlash, balki mahalliy resurslarni safarbar qilish, ichki bozorni to'ldirish, eksport salohiyatini oshirish va davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko'paytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka ham xizmat qilmoqda [1]. Shu nuqtai nazardan, ushbu sektor faoliyatini samarali yuritish uchun moliyaviy hisob-kitoblarni aniq va tizimli tashkil etish, xususan xarajatlar va daromadlar hisobini to'g'ri yuritish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — kichik biznes subyektlarida xarajatlar va daromadlar hisobini tashkil etish mexanizmini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asosda bartaraf etish choralarini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun birinchi navbatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatining xarajatlar tuzilmasi chuqur tahlil qilindi, hisob yuritishdagi mavjud standartlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amaliy yondashuvlar baholandi [2].

Xarajatlar va daromadlar buxgalteriya hisobining markaziy kategoriyalaridan bo'lib, korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantiradi. Xarajatlar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, daromadlar esa iqtisodiy manfaat shakllanishining muhim manbai hisoblanadi. Mazkur kategoriyalarni to'g'ri tasniflash,

baholash va hisobda aks ettirish korxonada foydaliligi, moliyaviy barqarorligi va soliqqa tortish bazasini aniqlashda asosiy omil sanaladi [3].

Kichik biznesda xarajatlar hisobini yuritishning amaliy jihatlari ishlab chiqarish texnologiyasiga, mahsulot yoki xizmat turiga, shuningdek, tanlangan hisob siyosatiga bog'liq. Ko'p hollarda soddalashtirilgan buxgalteriya hisobiga ega korxonalarda xarajatlar faqat sintetik hisobda aks ettiriladi va bu ularning iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, xarajatlarni 5 asosiy modda bo'yicha (moddiy xarajatlar, mehnat haqi, ijtimoiy ajratmalar, amortizatsiya, boshqa xarajatlar) aniq hisobga olish zarurati vujudga keladi [4].

Daromadlar hisobining o'ziga xos jihati shundaki, ular nafaqat mahsulot sotishdan, balki boshqa faoliyat turlaridan ham shakllanishi mumkin: moliyaviy investitsiyalar, valyuta kursi farqlari, mulkni ijaraga berishdan olingan foydalar va boshqalar. Hisobga olishda daromadlar Xalqaro moliyaviy hisob standartlari (IFRS) talablariga muvofiq tan olinishi, e'tirof etilishi va baholanishi lozim [5]. Ayniqsa, IFRS 15 standarti doirasida daromadni e'tirof etishning 5 bosqichi amaliyotda to'liq qo'llanilishi lozim: shartnoma mavjudligi, majburiyatlar aniqligi, narx belgilangani, narxni taqsimlash va majburiyatning bajarilishi [6].

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalarda xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi nisbat (marjinallik) ko'p hollarda past bo'ladi. Bunga sabab xarajatlarning haddan tashqari yuqoriligi yoki daromad manbalarining cheklanganligidir. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun xarajatlar tahlili asosida ularning optimallashtirish choralari ishlab chiqilishi lozim. Bunda quyidagi yo'nalishlar samarali hisoblanadi:

- ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlarini qisqartirish;
- ishchi kuchi unumdorligini oshirish;
- asosiy vositalardan foydalanish darajasini ko'tarish;
- materiallar sarfini me'yorlashtirish;
- ma'muriy xarajatlarni kamaytirish.

Daromadlar bo'yicha esa:

- mahsulot va xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish;
- narx siyosatini qayta ko'rib chiqish;
- marketing strategiyalarini kuchaytirish;
- xaridorlar bazasini kengaytirish zarur.

Hisob siyosatini belgilashda korxonalar qonunchilikka tayangan holda o'z faoliyatlariga mos yondashuvni tanlashlari mumkin. Bu degani, ular hisob usullarini, amortizatsiya metodlarini, zaxiralarni baholash mezonlarini va foyda solig'ini hisoblash tartibini tanlashda mustaqil qaror qabul qiladilar. Bu esa daromad va xarajatlarni optimallashtirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hisobning raqamlashtirilgan (1C, UzAsbo) tizimlari kichik biznes subyektlari uchun hisob yuritishda sezilarli yengillik yaratadi. Ular yordamida daromad va xarajatlarni real vaqt rejimida nazorat qilish, hujjatlashtirish va moliyaviy tahlilni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi [7].

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlarida xarajatlar va daromadlar hisobini tashkil etish va tahlil qilish korxonada moliyaviy intizomi, foydalilik darajasi va rivojlanish strategiyasini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Tahlil natijalari asosida optimal qarorlar qabul qilinishi va xarajatlar qisqarishi, daromadlar esa ko'payishi ta'minlanadi. Bu esa kichik

biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini kafolatlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-170-sonli Farmoni, 2023 yil.
2. VMning 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori «Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi nizam.
3. Sattorov K.X. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Azizov U.A. (2023). Kichik biznesda xarajatlar hisobini tashkil etish masalalari. Moliya va Buxgalteriya, №3.
5. IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers. www.ifrs.org
6. Mavlanov R.S. (2021). Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari asoslari. Toshkent: Ilm Ziyo.
7. Kamolova N. (2022). Raqamli buxgalteriya tizimlari va ularning kichik biznesga ta'siri. Ilmiy-amaliy jurnal, №6.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.